

**SPECIALIZATION OF AGRICULTURE OF SAMARKAND REGION*****Lutfullo Ibragimov****Samarkand State University**Samarkand, Uzbekistan****Shodiyar Boboyev****Samarkand State University**Samarkand, Uzbekistan****Firdavs Berdikulov****Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute**Tashkent, Uzbekistan****Gulmira Makhmudova****Presidential school in Samarkand**Samarkand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Samarkand, agriculture, products, farming, livestock, district.**Received:** 12.02.24**Accepted:** 14.02.24**Published:** 16.02.24**Abstract:** This article analyzes the results of large-scale reforms of agricultural products in Samarkand region, the share of regional districts in the total volume of products (services) of agriculture, forestry and fisheries. Also, the contribution of farming and livestock products to the total agricultural products grown in the region, as well as the main indicators of agricultural development in the district section, regional differences in the district section, are highlighted.**SAMARQAND VILOYATI QISHLOQ XO‘JALIGINING IXTISOSLASHUVI*****Lutfullo Ibragimov****Samarqand davlat universiteti**Samarqand, O‘zbekiston****Shodiyor Boboyev****Samarqand davlat universiteti**Samarqand, O‘zbekiston****Firdavs Berdiqulov****O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti**Toshkent, O‘zbekiston*

**Gulmira Maxmudova**

*Samarqand shahridagi prezident maktabi  
Samarqand, O'zbekiston*

---

#### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** Samarqand, qishloq xo'jaligi, mahsulot, dehqonchilik, chorvachilik, tuman.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini keng miqyosli islohotlar olib borilishi natijalari, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmida viloyat tumanlarining ulushi tahlil qilingan. Shuningdek viloyat bo'yicha jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarida dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari hissasi hamda tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari tumanlar kesimida hududiy farqlar yoritilgan.

---

#### СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

**Лутфулло Ибрагимов**

*Самаркандский государственный университет  
Самарканд, Узбекистан*

**Шодияр Бобоев**

*Самаркандский государственный университет  
Самарканд, Узбекистан*

**Фирдавс Бердикулов**

*Узбекско-Финляндский педагогический институт  
Ташкент, Узбекистан*

**Гульмира Махмудова**

*Президентская школа в Самарканде  
Самарканд, Узбекистан*

---

#### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** Самарканд, сельское хозяйство, продукты, земледелие, животноводство, район.

**Аннотация:** В данной статье анализируются результаты масштабного реформирования производства сельскохозяйственной продукции в Самаркандской области, доля областных районов в общем объёме продукции (услуг) сельского, лесного и рыбного хозяйства. Также выделен вклад продукции земледелия и животноводства в общий объём сельскохозяйственной продукции, выращенной в регионе, а также основные показатели развития сельского хозяйства на районном участке, региональные различия на районном участке.

---

## KIRISH


Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu sohaning YaIMdagi ulushi yuqoriligi bo'yicha jahon mamlakatlari orasida 18-o'rinni egallaydi. Istiqlol yillarida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida keng miqyosli islohotlar olib borildi. Mamlakatimizda ro'y berayotgan iqtisodiy taraqqiyoti YaIMda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining pasayishiga hamohang davom etmoqda. O'zbekiston qishloq xo'jaligida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda, uning natijalari sohaning barqaror o'sishini ta'minlash, resurslar samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadi. O'rganilayotgan hudud Samarqand viloyati ishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli hisoblanadi. Viloyat respublika agroiqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. Viloyat xo'jaliklarida mamlakatda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining qariyb 1/10 qismi tayyorlanadi. Yetakchi tarmoqlar — dehqonchilik va chorvachilik. Paxtachilik, g'allachilikdan tashqari bog'dorchilik, tokchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari, tamaki yetishtirish ancha rivojlangan. Samarqand viloyati uzumchilik bo'yicha Toshkent viloyati bilan birgalikda Uzbekistonda yetakchi hisoblanadi.

## ASOSIY QISM

Viloyatda qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni 1 299 440 gektarni tashkil etadi. Umumiy ekin maydoni – 429 038 gektar. 2020-yilda Samarqand viloyatida jami 44 ta agroklaster ishlagan. Umumiy ishlab chiqarish quvvati – 1 031 884 tonna. Shuningdek, 38 ta fermer xo'jaligidan tashkil topgan 1 ta meva-sabzavotchilik kooperatsiyasi faoliyat yuritgan. Umumiy ishlab chiqarish quvvati 3 5 000 tonna. 7 ta agrologistika markazlari mavjud. Hozirgi kunda 245 ta fermer xo'jaligi uchun 12 822 gektar maydon intensiv bog'lar uchun ajratilgan.

Respublikaning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmida mazkur hududning ulushi 11,0 %ni tashkil etdi. Viloyat bo'yicha jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 35,8%i – dehqonchilik mahsulotlari hamda 64,2%i – chorvachilik mahsulotlari hissasiga to'g'ri keldi. Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha mintaqalar orasida yuqori o'rinlarni egallaydi. Respublika jami ekin maydonining 13,3%i, 2020 yilda mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 13,1%i ushbu viloyat hissasiga to'g'ri keladi. Viloyat uzum (respublika ko'rsatkichiga nisbatan 36,5%), kartoshka (23,1%), sabzavot (16,5%), don (10,8%), go'sht (12,3%), jun (12,8%) va sut (12,3%) ishlab chiqarish bo'yicha respublikada oldingi o'rinlarni egallaydi.

Agar bu ko'rsatkich 2000 yilda 30,1%ni (Samarqand viloyatida - 45,4%) tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga kelib, u 16,6%gacha (28,7%) pasaydi. Viloyat yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining 61,7%i dehqonchilik va 38,3%i chorvachilik mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi.

**1-rasm. Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining tadrijiy o‘zgarishi (%)**

**Manba: O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi**

Viloyat ekin maydonlari tarkibida don va texnika ekinlari katta maydonni egallaydi. Tahlil etilayotgan davrda ekin maydonlari tarkibida ularning ulushi 78,7 dan 69,9 foizga, ozuqa ekinlari ulushi esa 13,7 dan 13,2 foizga pasaydi. Ayni paytda, kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari maydonlari ulushi 7,6 dan 10,4 foizga oshgan (*1-rasm*).

Viloyat chorvachiligi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jalilarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish” Dasturi asosida dehqon va fermer xo‘jaliklaridagi qoramollar bosh sonini ko‘paytirishga oid ko‘rilgan chora-tadbirlar hisobiga ma‘lum darajada rivojlandi. 2000-2015 yillarda chorva mollari, ayniqsa, parrandalarning bosh soni keskin ko‘paydi.

Viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi ko‘p jihatdan samaradorlik ko‘rsatkichlarining ortishi bilan bog‘liq. Tahlil natijalari, Samarqand viloyatida barcha toifadagi xo‘jaliklarda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi sezilarli darajada o‘sganligini ko‘rsatdi (*1-jadval*).

**1- jadval. Barcha toifadagi xo‘jaliklarda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi, s/ga**

Ko‘rsatkichlar	2000 yil	2005 yil	2010 yil	2020 yil
Paxta xom ashyosi	17,9	24,8	24,5	25,0
Don	25,7	38,8	45,7	46,0
Kartoshka	148,1	220,7	258,5	317,2
Sabzavotlar	213,6	261,6	348,9	446,4
Meva	147,4	165,7	226,7	266,3
Poliz mahsulotlari	58,2	79,1	102,6	159,7
Uzum	69,2	78,2	116,7	154,5

**Manba: O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi**

Viloyat qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirishda erishilgan ijobiy qadamlar ko‘p jihatdan qishloqda olib borilgan tarkibiy va bozor islohotlariga bog‘liq.

2005-2020 yillarda qishloq xo'jaligi korxonalar ulushi paxta xom ashyosi yetishtirishda 10,7% dan 0,3% ga, bug'doy yetishtirishda 8,9% dan 0,7% ga pasaydi, fermer xo'jaliklari ulushi esa mutanosib ravishda 89,3% dan 99,7% ga va 71,1% dan 79,7% ga oshdi. Fermer xo'jaliklarida meva yetishtirish 41,1% dan 49,6% ga, uzum yetishtirish 50,7% dan 65,9% ga va poliz ekinlari hajmi 43,9% dan 55,1% ga oshdi. Dehqon xo'jaliklari mazmun-mohiyatiga ko'ra kartoshka, uzum, ho'l meva, sabzavot, poliz mahsulotlari, go'sht, sut, tuxum yetishtirishda o'zining yuqori ulushini saqlab qoldi.

1-jadval ko'rsatkichlari hududlardan foydalanish va aholi zichligi doim ham o'zaro mos kelmasligini ko'rsatdi. Masalan, Toyloq (1 km<sup>2</sup> - 649,6 kishi), Samarqand (1 km<sup>2</sup>-535,6 kishi) tumanlarida aholi zichligi eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishiga qaramay, hududning foydalanish darajasi mos ravishda 42,2% va 23,6% ni tashkil etadi. Aksincha, foydalanish darajasi yuqori bo'lgan Oqdaryo, Pastdarg'om va Narpay tumanlarida aholi zichligi nisbatan o'rtacha ko'rsatkichlarni tashkil etadi. Buning sababi aholining hududiy jihatdan notekis joylashganligi bilan bog'liq.

Yuqorida **jadval** ma'lumotlaridan kelib chiqib yerdan foydalanish darajasiga qarab to'rt guruhga ajratish mumkin.

*Birinchi guruh.* **Foydalanish darajasi yuqori** bo'lgan tumanlardir. Bu guruhga Oqdaryo (63,1%), Pastdarg'om (59,4%), Narpay (56,3%), Jomboy (52,1%) tumanlari kiradi. Bu guruhga kiruvchi tumanlarda foydalanish darajasi 50% dan yuqoridir.

*Ikkinchi guruh.* **Foydalanish darajasi o'rtacha** bo'lgan tumanlardir. Bularga Tayloq (42,2%), Ishtixon (41,4%), Payariq (39%) va Bulung'ur (35,1%). Bu guruhga foydalanish darajasi 35% dan yuqori bo'lgan tumanlar kiritilgan.

*Uchinchi guruh.* **Foydalanish darajasi past** bo'lgan tumanlardir. Bularga Kattaqo'rg'on (27,1%), Samarqand (23%), Urgut (19,5) va Paxtachi (17,2%) tumanlaridir. Bu guruhga foydalanish darajasi 15% dan yuqori bo'lgan tumanlar kiradi.

*To'rtinchi guruh.* **Foydalanish darajasi eng past** bo'lgan tumanlar bo'lib, bu ikkala tuman Qo'shrabot (10,5%) va Nurobod (8,1%) tashkil etadi. Bu guruhga kiruvchi tumanlarda o'zlashtirish koeffitsienti o'rtacha 9,2% dir.

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ayni paytda, har ikki holatda ham Nurobod va Qo'shrabot tumanlari viloyatda eng quyi o'rinlarni egallaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu tumanlar hududining katta qismi tog' va cho'llardan iborat. Shu bois mazkur tumanlardagi ekin maydonlarining asosiy qismi (Nurobod tumani – 79,1%, Qo'shrabot tumani – 84,9%) hosildorlik darajasi past bo'lgan lalmikor maydonlardan tashkil topgan. Viloyatdagi lalmikor maydonlarning 60 foizga yaqini mazkur tumanlar hududida to'g'ri keladi.

Bunday holat muayyan turdagi qishloq xo'jalik ekinlarining joylashuvi, ularning hosildorligi, chorva mollarining joylashuvi va mahsuldorligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida viloyat tumanlari ekin maydonlarining tarkibiy tuzilmasi qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, **donli ekinlar** (32%) jami ekin maydonlarining katta qismini egallagan. Ayni paytda, ushbu ko'rsatkich bo'yicha muayyan hududiy tafovutlar mavjud. Bu sohadagi yuqori natijalar Tayloq (61,3 %), Oqdaryo (47,8%), Jomboy (46,1 %), Bulung'ur (44,6 %), Samarqand (45,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi. O'rta darajadagi guruhlarga esa 35-40 % maydonga ega bo'lgan tumanlar ya'ni Payariq, Urgut, Ishtixon, Paxtachi kiradi. Aksincha, donli ekinlar maydoni eng kam va kam bo'lgan tumanlarga Kattaqo'rg'on (22,8 %), Nurobod (34,9%), Qo'shrobot (34,1 %) va Narpay (32,7 %), tumanlarini kiritish mumkin.

Statistik tahlillar asosida kartaga tushirilgan ma'lumotlari asosida viloyat tumanlaridagi donli ekinlar maydonini katta kichikligiga qarab quyidagi guruhlarga ajratilish mumkin.

**2-jadval. Samarqand viloyati tumanlarining donli ekinlar maydoniga ko'ra guruhlarga ajratilishi**

№	Darajasi	Mezonlari	Tumanlar nomi
1	Eng yuqori	45% va undan yuqori	Toyloq, Jomboy, Oqdaryo, Samarqand
2	Yuqori	40-45 %	Bulung'ur, Pastedarg'om
3	O'rta	35-40%	Payariq, Urgut, Ishtixon, Paxtachi
4	Kam	30-35	Nurobod, Qushrabad, Narpay
5	Eng kam	30% gacha	Kattaqo'rg'on


Shuni alohida ta'kidlash lozimki, viloyatda yetishtiriladigan donli ekinlarning 95% dan ortiq qismiga bug'doy ekiladi. Viloyat tumanlarini ekin maydonlarini jami ekin maydonlariga nisbatan katta kichikligi bir qancha omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Birinchidan viloyat tumanlarining qishloq xo'jaligi nuqtai-nazaridan ixtisoslashuvi asosiy omil bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan qulay iqlim sharoti, uchinchidan hududlarning relyefi, to'rtinchidan hududlarning suv bilan ta'minlanganlik darajasi kabi omillarga bog'liqdir.

Texnika ekinlari viloyat jami ekin maydonlarining 21%dan ortig'ini egallaydi. Shundan, paxta - Paxtachi (46,2%), Narpay (44,6%) tumanlarining katta qismini, tamaki asosan Urgut tumanida (32,4%) ekiladi. Bulung'ur, Qo'shrabad, Samarqand, Urgut va Toyloq tumanlarida paxta ekilmaydi.

Samarqand viloyati respublikada kartoshka, sabzavot, poliz va yem-xashak ekinlari yetishtirish bo'yicha oldingi o'rinlardan birini egallaydi va jami ekin maydonlarining 23,6 foizi shunday ekinlar bilan band. Bu sohada tumanlar orasidagi eng yuqori ko'rsatkichlar Toyloq - (37,9 %), Samarqand -(42,7 %), Bulung'ur - (26,5 %) tumanlariga tegishli.



**2-rasm. Samarqand viloyati tuman va shaharlarida qishloq xo'jaligi ekinlari  
hosildorligi s/ga (2022)**



**Manba: Samarqand viloyat statistika boshqarmasi**

Tadqiqot jarayonida viloyat tumanlarida qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorlik holati o'rganildi. G'alla yetishtirish bo'yicha **eng yuqori** ko'rsatkichlar Paxtachi (64,9 s/ga), Oqdaryo (64,5 s/ga) tumanlarida qayd etildi.

Undan keyingi **yuqori** o'rinlarda esa Narpay (58,3 s/ga), Pastdarg'om (54,6s/ga), Jomboy (54,6 s/ga), Ishtixon (52,9 s/ga), Kattaqo'rg'on (50,9s/ga) tumanlaridir. Hosildorlik darajasi **o'rta** bo'lgan tumanlarga Tayloq (47,9 s/ga), Bulung'ur (47,7s/ga), Payariq (45,9s/ga), Samarqand (45,3 s/ga), Urgut (42,3 s/ga) kiradi. Aksincha, bu sohadagi **past** natija asosan lalmikor dehqonchilikka asoslangan Qo'shrabod (6,9 s/ga) va Nurobod (10,6 s/ga) tumanlarida kuzatildi.

Samarqand viloyati qishloq xo'jaligini uzumchiliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uzumzorlar viloyat jami ekin maydonlarining 8,5 foizini, respublikadagi jami uzum ekiladigan maydonlarning esa 29,5 foizini tashkil etadi va bu sohada viloyat respublikada birinchi o'rinni egallaydi. Yalpi hosil bo'yicha ham mintaqa mamlakatimizda eng oldingi o'rinda. O'zbekistonda yetishtiriladigan uzumning 1/3 qismi Samarqand viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Viloyatdagi eng katta uzumzorlar Bulung'ur, Urgut, Ishtixon, Payariq, Samarqand tumanlariga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining hududiy ixtisoslashuvi relyef, agroiqlim sharoiti, hududning o'zlashtirilish darajasi, aholi zichligi kabi ko'rsatkichlarga bog'liq. Tadqiqot jarayonida Samarqand viloyati ma'muriy-hududiy birliklarining ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha holati tahlil qilindi. Asosan tog', adir va cho'l hududlarini egallagan ayrim tumanlar maydoni katta bo'lishiga qaramay, ularda dehqonchilik faoliyatini olib borish noqulayligi tufayli foylanish darajasi pastligi aniqlandi. Amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra, viloyat tumanlari hududning

o'zlashtirilishi va aholi zichligi bo'yicha guruhlarga ajratildi. Bunday tasniflash tumanlarning muayyan qishloq xo'jalik ekinlariga ixtisoslashuvini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyatdagi hududiy ixtisoslashuv nafaqat qishloq xo'jalik ekinlarining joylashuvida, balki chorva mollarini yetishtirish va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarida ham namoyon bo'ladi. Ta'kidlash joizki, ayrim chorvachilik mahsulotlari (tuxum, jun, qorako'l terisi) bo'yicha tumanlar orasidagi farqlar juda katta bo'lgani holda, boshqa tur (go'sht, sut, pilla) mahsulotlar orasidagi tafovutlar sezilarsiz (3-jadval).

**3-jadval. Samarqand viloyati tumanlari bo'yicha chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish,% (2020)**

Tumanlar nomi	go'sht	sut	tuxum	jun	qorako'l terisi
Viloyat bo'yicha	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Bulung'ur	6,8	5,0	2,3	9,4	0,1
Jomboy	2,3	5,4	4,4	0,3	
Ishtixon	8,3	10,9	4,2	3,3	
Kattaqo'rg'on	7,6	11,9	3,3	6,6	2,7
Narpay	2,3	4,5	0,5	2,4	2,3
Nurobod	6,0	2,8	0,4	23,7	53,4
Oqdaryo	5,2	5,1	2,1	1,3	
Payariq	8,2	7,3	2,9	5,1	
Pastdarg'om	7,3	8,3	2,8	11,3	19,6
Paxtachi	9,8	9,5	2,0	3,3	0,2
Samarqand	5,8	5,8	63,4	4,5	0,1
Tayloq	7,3	7,5	3,1	2,3	
Urgut	15,1	10,8	4,2	4,9	
Qo'shrabod	6,6	4,1	2,5	20,2	21,3
Samarqand sh	1,2	1,1	0,9	0,7	0,4
Kattaqo'rg'on sh	0,1	0,1	1,0	0,7	

Manba: Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, viloyatda yetishtirilgan ayrim chorva mahsulotlarining yarmidan ko'prog'i birgina ma'muriy-hududiy birlik hissasiga to'g'ri keladi. Jumladan, tadqiqot hududida ishlab chiqarilgan tuxumning 63,4 foizi Samarqand tumanida, qorako'l terisining 53,4 foizi Nurobod tumanida jamlangan. Nurobod va Qo'shrabot tumanlarining har birining hissasiga viloyatda yetishtirilgan junning 1/5 qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Viloyatda go'sht (Urgut tumani bundan mustasno) va sut yetishtirish bo'yicha hududiy tafovutlar sezilarli darajada emas.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tabiiyki, chorva mollari bosh soniga bog'liq. Bu sohada ham har bir hududning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari asosida ixtisoslashuv belgilari yuzaga kelgan va tumanlar orasida muayyan tafovutlar kuzatiladi. Shahar atrofi xo'jaligiga asoslangan Samarqand va Kattaqo'rg'on tumanlarida viloyatdagi jami parrandalarning 97%i jamlangan. Boshqa aksariyat tumanlarda bu ko'rsatkich hatto 1 foizga ham yetmaydi. Shunday holatni chorvachilik tarmoqlaridan biri bo'lmish – cho'chqachilik misolida



ko'rish mumkin. Viloyatda boqilayotgan cho'chqalarning 1/3 qismidan ko'prog'i Pastdarg'om tumanida, 1/5 qismidan ko'prog'i esa Kattaqo'rg'on shahrida boqiladi. Bulung'ur, Toyloq va Urgut tumanlarida umuman cho'chqa boqilmaydi. Buning sababi, mazkur tumanlar aholisining milliy tarkibi bilan bog'liqdir (4-jadval).

**4-jadval. Samarqand viloyati tumanlarida chorva mollarining soni, % (2020)**

Tumanlar nomi	yirik shoxli qoramol	sigirlar	parranda	cho'chqalar	qo'y va echkilar
Bulung'ur	6,5	7,8	0,1		6,2
Jomboy	5,7	4,9	0,3	8,7	4,1
Ishtixon	8,9	9,1	0,9	6,2	3,4
Kattaqo'rg'on	8,7	9,0	26,8	5,6	6,5
Narpay	5,0	5,8	0,03	1,3	2,3
Nurobod	2,6	2,8	0,1	5,1	21,9
Oqdaryo	4,8	4,0	0,1	3,8	1,3
Pastdarg'om	9,8	10,3	0,2	35,5	6,0
Paxtachi	8,8	7,2	0,1	3,7	12,0
Payariq	7,3	8,6	0,2	0,1	3,8
Samarqand	4,3	3,9	70,2	3,4	5,6
Tayloq	6,5	7,0	0,03		1,9
Urgut	12,3	12,4	0,2		4,9
Qo'shrabod	6,4	5,3	0,74	0,5	18,8
Samarqand sh	1,9	1,3	0,004	2,7	0,7
Kattaqo'rg'on sh	0,4	0,7	0,002	23,3	0,5
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

Manba: Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

Qo'y va echkilarning asosiy qismi Nurobod (21,9%) va Qo'shrabot (18,8%) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yirik shoxli qoramollar va sigirlar bosh soni bo'yicha esa, yuqorida ta'kidlanganidek, tumanlar orasida (Urgut tumani bundan mustasno) katta tafovutlar kuzatilmaydi.

Viloyat ma'muriy-hududiy tuzilishi, tabiiy-geografik va relyef sharoiti uni qishloq xo'jalik tumanlariga ajratishda birmuncha murakkabliklarni yuzaga keltirdi. Jumladan, Paxtachi tumani ekin maydonlarining yarmidan ko'piga g'o'za ekiladi, ayni paytda tuman hududining faqat 1/6 qismidan dehqonchilik maqsadida foydalanish mumkin, xolos. Samarqand, Kattaqo'rg'on tumanlarini bir qismi yirik shaharlar atrofida joylashgan bo'lib, intensiv qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Biroq, relyef noqulayliklari tufayli ushbu tumanlarning ham o'zlashtirilish darajasi past.

Shunga qaramay, ekin turlarining hududiy joylashuvi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Samarqand viloyati hududi shartli ravishda 5 ta qishloq xo'jalik tumaniga ajratildi.

**5-jadval. Samarqand viloyati mintaqalarida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishning hududiy tarkibi, jamiga nisbatan % hisobida**

Mahsulot turlari	M i n t a q a l a r				
	Janubi-sharqiy	Janubiy va janubi-g‘arbiy	Markaziy	Sharqiy	Shimoliy
Maydoni	16,3	29,0	23,5	18,4	12,8
Aholisi	44,2	3,7	25,2	23,6	3,3
Yalpi q/x mahsuloti	31,1	3,1	30,9	26,0	8,9
Donli ekinlar	21,4	2,3	27,2	48,4	0,6
shu jumladan:					
Bug‘doy	20,5	2,4	27,9	48,7	0,5
Arpa	56,0	1,3	14,7	26,1	1,9
Dukkakli ekinlar	5,6	8,0	15,9	56,7	13,8
Paxta	0,0	1,4	49,6	48,9	0,0
Tamaki	100,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kartoshka	48,8	0,7	19,8	29,5	1,1
Sabzavot	54,0	0,6	19,0	25,8	0,6
Poliz ekinlari	15,8	16,1	36,4	27,2	4,4
Yem-xashak ekinlari	18,9	6,7	16,9	47,5	10,0
Mevalar	31,6	0,7	24,5	40,7	2,5
Go‘sht	35,0	6,0	28,0	23,1	6,6
Sut	29,0	2,8	36,9	26,1	4,1
Tuxum	72,9	0,4	11,0	12,3	2,5
Jun	21,1	23,7	16,2	18,0	20,2
Qorako‘l terisi	0,2	53,4	5,2	19,6	21,3

Manba: Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

Jadval ma’lumotlari viloyat qishloq xo‘jaligida shakllangan hududiy ixtisoslashuv ancha aniq va nisbatan barqaror ekanligidan dalolat beradi. Aksariyat qishloq xo‘jalik ekinlari va chorva mollarini yetishtirish Janubi-sharqiy, Markaziy va Sharqiy tumanlarda jamlangan. Jumladan, donli ekinlarning 48,4, dukkakli ekinlarning 56,7, paxtaning 48,9, yem-xashak ekinlarining 47,5 foizi Sharqiy tumanda; paxtaning 49,6, poliz ekinlarining 36,4, sutning 36,9 foizi Markaziy tumanda; arpaning 56,0, kartoshkaning 48,8, sabzavotning 54,0, tuxumning 72,9, tamakining 100 foizi Janubi-sharqiy tumanda yetishtiriladi.

Viloyat hududining 40 foizdan ko‘proq qismini egallagan Nurobod va Qo‘shrabod tumanlarining har biri alohida zonalar sifatida ajratildi. Biroq unumsiz va kamhosil yerlarni egallagan mazkur hududlarda biron bir mahsulot turini yetishtirish bo‘yicha mutloq ustunlik sezilmaydi (Janubiy va Janubi-G‘arbiy tumanda qorako‘l terisini yetishtirish – 53,4% bundan mustasno).

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, viloyat hududida tabiiy-iqlim sharoiti, aholining hududiy joylashuvi, kishilarning malakasi, ekin maydonlari tarkibi va ekinlar hosildorligi bo‘yicha o‘zaro farq qiluvchi zonalar shakllangan. Aholini ish bilan ta’minlashda mazkur omil yetarli darajada hisobga olinsa, u o‘z ijobiy samarasini berishi mumkin.

Tadqiqot davrida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi Samarqand viloyatida jadal rivojlandi. Ayni paytda, mazkur tarmoqning YaHM va bandlik tarkibidagi salmog'i sezilarli darajada pasaydi. Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yaqin istiqbolida ushbu tendensiyaning davom etishi kutiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ibragimov, L., & Muminjonova, S. (2023). Hududlarni iqtisodiy rivojlanishida yer va suv resurslarining ahamiyati. *Eurasian Journal of Academic Research*, 3(1 Part 2), 164–169.
2. Soliyev A.S. O'zbekiston geografiyasi. Universitet. T.: - 2014.
3. Ибрагимов Л.З. (2022). *Жануби-зарбий Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг иқтисодий географик хусусиятлари*. DSc автореферати. Тошкент, 63 б. Available from: <https://www.researchgate.net/>
4. Zulkhumor, T., Lutfullo, I., Muazzam, S., & Nizomiddin, J. (2022). *Territorial characteristics of social and environmental problems in the location of the population of Uzbekistan. International Journal of Health Sciences*, 6(S3), 11026–11033. <https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS3.85>
5. Zokirov, S. S., & Ibragimov, L. Z. (2017). Specialization of agriculture-as the solution to the problem of employment (a case study of Samarkand region). *European science review*, (1-2), 19-23.
6. Ibragimov, L. (2016). The Economic Role of the Geographical Potential of Samarkand Region. *International Journal of Humanities Social Sciences and Education (IJHSSE)*, 4, 72-77. DOI: 10.20431/2349-0381.0304008
7. Ibragimov, L. Z. (2016). Importance of studying natural and geographical potential of regions in economic-geographical research (A case study of Samarkand Region). *Наука и мир*, 2(7), 111-115.
8. Ibragimov, L. Z., Sharipova, M.Z., Davranova, M.A. Agricultural zoning of the territory (A case study of Samarkand region). *Международного научно-исследовательского конкурса. Петрозаводск, 2019. pp.214-222*. Available from: <https://www.researchgate.net/>
9. Kuvandikov O.Kh., Djumaboyev T., Ibragimov L.Z., Musayev B.M. Territorial Features of Horticultural Development in Agriculture of Samarkand Region. *Nat Sci* 2020;18(10):30-34. doi:10.7537/marsnsj181020.04
10. Sadiqov, S. (2023). Qishloq xo'jaligi tarmoqlari va hududiy tarkibini takomillashtirishda kartografik metoddan foydalanish (Urganch tumani misolida). *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(6), 65–68. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/16509>

11. Ибрагимов, Л. З., Давранова М.А. (2018). *Иқтисодий географик тадқиқотларда ҳудудларнинг табиий шароити ва ресурсларини баҳолаш (Самарқанд вилояти мисолида)*. Орол минтақаси ва қўшни ҳудудларда комплекс географик тадқиқотларнинг муаммо ва истиқболлари. – Нукус, 207-209 б. Available from: <https://www.researchgate.net/>

12. Ortiqova Sh.Z. Mustaqillik yillarida angor tumanida qishloq xo‘jaligining rivojlanishi va tumandadi qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni yechish masalalari. Экономика и социум. №6(109)-2 2023. 324-327 б.

13. <https://stat.uz>

14. <https://samstat.uz>

15. <https://www.agro.uz>

16. <https://www.agro.uz>